O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
_____________ O.SH.Bazarov
_____________2024 yil

Ro'yhatga olindi № 06/02/027
"27" iyun 2024 yil

# PENSIYA ISHI
fanining

## O'QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq |
| Ta'lim sohasi: | 410 000 – Biznes va boshqaruv |
| Ta'li yo'nalishi: | 60410400–Moliya va moliyaviy texnologiyalar |

Qarshi-2024 y.

Scanned with CamScanner

| Fan/modul kodi<br>PI2305 | O'quv yili<br>2024-2025 | | Semestr<br>3 | ECTS - Kreditlar<br>5 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>majburiy | Ta'lim turi<br>O'zbek | | | Haftadagi dars soatlari<br>4 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) | |
| | Pensiya ishi | 60 | 90 | 150 | |

2.

**I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad - Ushbu fan iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tayyorlanayotgan kadrlarning iqtisodiy bilimlarini va ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynovchi "Pensiya ishi" fanining o'quv dasturi fanning predmeti, vazifalari va maqsadi, Pensiya tushunchasi, Pensiya va nafaqalarning ob'ektiv zarurligi, pensiyaga chiqish tartib taomillari, pensiyani moliyalashtirish mexanizmlari va yo'nalishlari, davlat pensiya turlari shakllari, nafaqalr turlari va shakllari, pensiya sohasidagi yuzaga keladigan muammolar bo'yicha chuqur nazariy va amaliy bilim berish kabi masalalami qamrab olgan.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga qo'idagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. "Pensiya ishi faniga kirish" faniga kirish.**

Pensiya ta'minotining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, zarurligi va vazifalari. Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda pensiya ta'minotining o'rni. Pensiya ta'minoti borasida davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirish mexanizmlarining dastak va vositalari. Pensiya ta'minotining turlari va tashkiliy shakllari. O'zbekiston Respublikasida davlat pensiya ta'minotining o'ziga xos xususiyatlari. Pensiya to'lovlarini taqdim etish shartlari va me'yorlarining, mamlakatdagi demografik va iqtisodiy holatning pensiya tizimlarining moliyaviy holatiga ta'sirini baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar: qamrov koeffitsienti, bosim koeffitsienti, pensiyaning absolyut miqdori, qoplash koeffitsienti. Mamlakatdagi demografik vaziyat va uning pensiya ta'minotiga ta'siri.

**2-mavzu. Pensiya ta'minotining shakillanish va rivojlanish tarixi.**

Jahon mamlakatlarida pensiya ta'minotining kelib chiqish va shakllanish tarixi. Pensiya ta'minoti tizimi – barcha davlatlarda aholini ijtimoiy himoyalash siyosatining markaziy bo'g'ini. Jahondagi pensiya tizimlarining modellari. "Avlodlar birdamligi"ga asoslangan taqsimlanuvchi model. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti modeli. Aralash pensiya ta'minoti modeli. Milliy pensiya tizimlarining mazmuni va tashkil etishning asosiy tamoyillari. Jahon mamlakatlaridagi demografik o'zgarishlar va moliyaviy inqirozlar sharoitida pensiya ta'minotida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minotining rivojlanish bosqichlari. Mustaqillikkacha bo'lgan davrda O'zbekistonda pensiya ta'minotining

holati va boshqaruvi. Mustaqillik yillarida pensiya ta'minotidagi o'zgarishlar. Mamlakatdagi demografik vaziyat va uning pensiya ta'minotiga ta'siri. Zamonaviy sharoitda O'zbekiston pensiya ta'minotidagi islohotlar, ularning asosiy yo'nalishlari.

**3-mavzu. Pensiya ta'minotining huquqiy asoslari**

Davlat pensiya ta'minotining qonuniy-huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – fuqarolar ijtimoiy ta'minotining qonuniy kafolati sifatida. "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni, mazmuni va ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining davlat pensiya ta'minoti mablag'larini boshqarish va tartibga solishdagi ahamiyati. "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun, uning mazmuni va ahamiyati. Pensiya ta'minoti qonunchiligi darajalari: qonunlar, kodekslar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining pensiya masalalaridagi qarorlari; O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyruqlari, farmoyishlari va pensiya ta'minoti sohalariga taalluqli bo'lgan boshqa me'yoriy hujjatlari (nizomlar, yo'riqnomalar, qoidalar). Davlat pensiya ta'minotining huquqiy-me'yoriy asoslarini takomillashtirish va mustahkamlash.

**4-mavzu. Pensiya ta'minotini boshqarish**

Davlat pensiya ta'minotini boshqarish organlari, ularning guruhlanishi. Davlat pensiya ta'minotini boshqarish va ijrosini amalga oshiruvchi organlar, ularning asosiy vazifalari. Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, tashkil bo'lishi, asosiy vazifalari va tashkiliy tuzilishi. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hududiy bo'linmalarining funktsiya va vazifalari, tarkibiy tuzilishi. Davlat soliq qo'mitasining budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlarini shakllantirishdagi faoliyati. Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari g'azna ijrosini tashkil qilish. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini boshqarish organlari, ularning vazifalari.

**5-mavzu. Pensiya ta'monotini moliyaviy manbalari**

Pensiya jamg'armasining O'zbekiston Respublikasi Konsolidatsiyalashgan budjeti tarkibida tutgan o'rni va ahamiyati. Pensiya jamg'armasining daromadlari, ularning tarkibi va shakllanishi. Pensiya jamg'armasi daromadlari turlari tavsifi. Yagona ijtimoiy to'lov, uning sub'ektlari, ob'ekti va stavkasi. Fuqarolarning ish haqidan sug'urta badallari, ularning to'lanish tartibi va stavkalari. Yuridik shaxslarning Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalari, ularning ob'ektlari va stavkalari. Pensiya jamg'armasining boshqa turdagi tushumlari. Pensiya jamg'armasining moliyaviy manbalarini mustahkamlash yo'llari. Pensiya jamg'armasi xarajatlari tarkibi. Ishlamaydigan pensionerlarga to'lanadigan pensiyalar. Ishlovchi pensionerlarga to'lanadigan pensiyalar. Kommunal xizmatlar uchun to'lovlar bo'yicha kompensatsiya xarajatlari. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha Pensiya jamg'armasidan to'lanadigan nafaqalar, ularning turlari. Pensiya jamg'armasining boshqa xarajatlari. Pensiya jamg'armasi xarajatlarini optimallashtirish masalalari. Pensiya jamg'armasining moliya bozoridagi ishtiroki.

**6-mavzu. Aholini davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalar bilan ta'minlashda davlat maqsadli jamg'armalarining o'rni va ahamiyati**

Scanned with CamScanner

Pensiya jamg'armasi moliyaviy resurslarini boshqarishning mazmuni, usullari, subyektlari va obyektlari. Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarini rejalashtirish tartibi. Pensiya jamg'armasi budjeti loyihasini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi. Pensiya jamg'armasi budjetining ijrosini tashkil qilish. Pensiya jamg'armasi tomonidan to'lanadigan ayrim to'lovlarning boshqa manbalardan qoplash tartibi va mexanizmi. Pensiya jamg'armasi moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'llari. Xorijiy mamlakatlarda pensiya fondlari budjeti va uni shakllantirish, pensiya rejalarini moliyalashtirish xususiyatlari.

## 7-mavzu. Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari

Mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi oqibatida tayinlangan boquvchisini yo'qotganlik va nogironlik pensiyalarini to'lashga xarajatlarni qoplash tartibi. Regress da'vo arizalari. Regress talabnoma. Pensiyalarini to'lash xarajatlari bo'yicha qarzdorlik to'g'risidagi ma'lumotlar. Xarajatlarni qoplovchi to'lov. Ishsiz maqomiga ega bo'lgan shaxslarga muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalar to'lashga xarajatlarni qoplash tartibi. Fuqarolarning salomatligiga putur yetganligi, zararli mehnat sharoitlarida ma'lum muddat oralig'ida ishlaganligi, muddatidan oldin pensiyaga chiqarib yuborilishi yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlar natijasida byujetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan to'lanadigan pensiyalar va nafaqalarning pensiya munosabatlarinig boshqa sub'ektlaridan, xususan, korxonalar va tashkilotlardan, Aholi bandligiga ko'maklashish xizmati tashkilotlaridan va boshqa javobgar shaxslardan undirilishi. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ayrim to'lovlarining Pensiya jamg'armasiga boshqa manbalardan qoplab berilishi. Mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi oqibatida tayinlangan boquvchisini yo'qotganlik va nogironlik pensiyalarini to'lashga xarajatlarni qoplash tartibi. Regress da'vo arizalari. Regress talabnoma. Pensiyalarini to'lash xarajatlari bo'yicha qarzdorlik to'g'risidagi ma'lumotlar. Xarajatlarni qoplovchi to'lov. Ishsiz maqomiga ega bo'lgan shaxslarga muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalar to'lashga xarajatlarni qoplash tartibi. Fuqarolarning salomatligiga putur yetganligi, zararli mehnat sharoitlarida ma'lum muddat oralig'ida ishlaganligi, muddatidan oldin pensiyaga chiqarib yuborilishi yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlar natijasida byujetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan to'lanadigan pensiyalar va nafaqalarning pensiya munosabatlarinig boshqa subyektlaridan, xususan, korxonalar va tashkilotlardan, Aholi bandligiga ko'maklashish xizmati tashkilotlaridan va boshqa javobgar shaxslardan undirilishi.

## 8-mavzu. Pensiya jamg'armasi moliyaviy resurslarini va moliyaviy barqarorligini ta'minlash

Davlat pensiyalarining turlari. Davlat pensiyalarini tayinlash uchun talab etiladigan umumiy shartlar. Yoshga doir pensiyalar. Nogironlik pensiyalari, ularni tayinlash asoslari. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari. Ish staji to'liq bo'lmaganda pensiyalarni tayinlash. Pensiya hisoblash uchun o'rtacha oylik ish haqini aniqlashning umumiy tartibi. Pensiya tayinlash uchun zarur bo'gan mehnat faoliyati turlari. Pensiyani hisoblash uchun zarur bo'lgan ish stajini aniqlash tartibi. Pensiyani tayinlash muddatlari. Pensiyani qayta hisoblash shartlari. Pensiyani to'lash muddatlari. Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalarida ro'yxatda turuvchi ishlovchi pensionerlarga

Scanned with CamScanner

pensiya to'lash tartibi. O'zbekiston Respublikasi ayrim vazirlik va idoralarida hisobda turuvchi ishlovchi pensionerlarga pensiya to'lash tartibi.

**9-mavzu. Ijtimoiy nafaqalar.**

16 yoshdan katta bolalikdan nogironlarga va 16 yoshgacha nogiron bolalarga har oylik nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi. Davlat pensiyasi tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga har oylik nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi. Nafaqalarning turlari. Yoshga doir nafaqa. Nogironlik nafaqasi. Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi. Nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi.

**10-mavzu. Yoshga doir pensiya va nafaqalarni to'lash tartibi**

Pensiya ta'minotining holatiga ta'sir etuvchi omillar. Demografik omillar. Aholining yosh tarkibi. Mehnatga layoqatli aholi soni. Ish bilan band aholi (sug'urta badali to'lovchilar) soni va ularning pensionerlarga nisbati. Pensiya tizimining majburiyatlariga nisbatan manbalar bo'yicha tushumlar miqdori. Fuqarolarni pensiya tizimiga qamrab olinganlik ko'rsatkichlari. Pensiya ta'minotining yetarlilik darajasi. Pensiyani tayinlashda sug'urta prinsipiga amal qilinishi, to'langan sug'urta badallari miqdorining pensiya miqdoriga bog'liqligi, sug'urta badali va yagona ijtimoiy to'lovlar stavkasi, pensiyalarning belgilangan eng kam miqdorlari. Imtiyozli shartlardagi pensiyalar va pensiyaga ustama haqlar. Mehnat migrantlarini davlat pensiya sug'urtasi bilan qamrab olish darajasi. Pensiyaga chiqish yoshi. Jismoniy shaxslar ish haqlarining miqdori. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosda ishtirok etuvchilar uchun rag'batlantiruvchi omillarning mavjudligi. Banklar tomonidan jamg'arib boriladigan pensiya mablag'lariga foizlar to'lanishi.

**11-mavzu. Boquvchisini yo'qotganlak pensiyasi**

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining mazmuni, vazifalari, zarurligi va ahamiyati. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining huquqiy-me'yoriy asoslari. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti faoliyatini tashkil etish. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish. Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini amalga oshirish tartibi. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotida ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlari. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini boshqarish. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'laridan investitsion maqsadlarda foydalanish.

**12-mavzu. Harbiy xizmatchilar davlat pensiya ta'minotining xuxusiyatlari**

Ijtimoiy sug'urtaning shakllari. Ijtimoiy sug'urtaning moliyaviy asoslari. Ijtimoiy va kasbiy risklar. Mehnatga qobiliyatsizlikni sug'urtalash. Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalardan sug'urtalash. Tibbiy sug'urta. Ishsizlik sug'urtasi. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash.

**13-mavzu. Ichki ishlar organlari xodimlari pensiya ta'monotining xususiyatlari**

Pensiya ta'minotida axborot tizimlarining mohiyati, zarurligi va vazifalari. Pensiya ta'minotiga axborot texnologiyalari va interaktiv xizmatlarni tatbiq etish va rivojlantirishga qaratilgan hukumat qarorlari. Pensiya ta'minotini tashkil yetishda zamonaviy kompyuter texnologiyalari va zamonaviy aloqa tizimlaridan foydalanish.

Scanned with CamScanner

Davlat pensiya ta'minoti mablag'larini boshqarishda axborot tizimi. "PK-Pensiya" dasturining ishlash tamoyillari. Pensiya ta'minoti axborot tizimlarining takomillashuvi. Pensiya ta'minoti sohasida interaktiv xizmatlarni taqdim etishga mo'ljallangan "Pensiya" axborot tizimlari kompleksini uyg'unlashtirish bo'yicha loyihani amalga oshirish bosqichlari. Fuqarolarga pensiya ta'minoti bo'yicha 8 interaktiv xizmatlarni tashkil qilishda qo'llaniladigan axborot texnologiyalari. Pensiya ta'minotida axborot-kommunikatsiya tizimlaridan foydalanish yuzasidan xorij tajribalari. Pensiya ta'minoti xizmatlarini avtomatlashtirish istiqbollari..

**14-mavzu. Pensiya jamg'armasidan to'lanadigan nafaqalar ,ularni tayinlash va to'lash tartibi.**

Nodavlat pensiya ta'minotining mazmuni, vazifalari, zarurligi va ahamiyati. Nodavlat pensiya ta'minoti faoliyatini tashkil etish. Nodavlat pensiya ta'minoti mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish. Nodavlat pensiya ta'minotida ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlari. Nodavlat pensiya ta'minotini boshqarish. Nodavlat pensiya ta'minoti mablag'laridan investitsion maqsadlarda foydalanish.

**15-mavzu. Pensiya jamg'armasidan to'lanadigan nafaqalar ,ularni tayinlash va to'lash tartibi.**

Xorijiy davlatlarda ijtimoiy siyosat yo'nalishlari va ularni amalga oshirishga mas'ul ijtimoiy institutlar. Xorijiy davlatlar pensiya tizimlari turlariga umumiy tavsif. Xorijiy davlatlarda pensiyaga chiqish yoshi va zarur ish staji. Xorijiy davlatlarda pensiya ta'minotini mablag' bilan ta'minlash manbalari. Rivojlangan xorijiy davlatlar pensiya tizimlari modellari. Xorijiy davlatlarda davlat va nodavlat pensiya tizimlari. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari pensiya ta'minoti tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari va pensiya tizimlaridagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari. Xorijiy davlatlar pensiya tizimlarini tashkil etish va fuqarolarning pensiya ta'minotini amalga oshirishdagi ilg'or tajribalar va ulardan O'zbekistonda foydalanish shart-sharoitlari va imkoniyatlari.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

**Amaliy mashg'ulotlar uchun quydagi mavzular tavsiya etiladi**:

1. "Pensiya ishi" faniga kirish.
2. Pensiya ta'minotining shakillanish va rivojlanish tarixi.
3. Pensiya ta'minotining huquqiy asoslari.
4. Pensiya ta'monotini boshqarish.
5. Pensiya ta'monotini moliyaviy manbalari.
6. Aholini davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalar bilan ta'minlashda davlat maqsadli jamg'armalarining o'rni va ahamiyati.
7. Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari
8. Pensiya jamg'armasi moliyaviy resurslarini va moliyaviy barqarorligini ta'minlash.
9. Ijtimoiy nafaqalar.
10. Yoshga doir pensiya va nafaqalarni to'lash tartibi.
11. Boquvchisini yo'qotganlak pensiyasi.
12. Harbiy xizmatchilar davlat pensiya ta'minotining xuxusiyatlari.

Scanned with CamScanner

13. Ichki ishlar organlari xodimlari pensiya ta'monotining xususiyatlari.
14. Pensiya jamg'armasidan to'lanadigan nafaqalar ,ularni tayinlash va to'lash tartibi.
15. Pensiya jamg'armasidan to'lanadigan nafaqalar ,ularni tayinlash va to'lash tartibi.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

***Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:***

1. Ijtimoiy ta'minotning mohiyati, zarurligi, ijtimoiy ta'minot bo'yicha konsepsiyalar, ularning mazmuni.
2. jtimoiy ta'minot borasidagi davlat siyosati, mazmuni, asosiy vazifalari va yo'nalishlari.
3. Ijtimoiy ta'minotning huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – fuqarolar ijtimoiy ta'minotining qonuniy kafolati sifatida.
4 Ijtimoiy ta'minot huquqiy-me'yoriy asoslarini takomillashtirish va mustahkamlash.
5. Ijtimoiy ta'minotni amalga oshirish shakllari, ularning guruhlanishi
6. Pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, turli kompensatsion to'lovlar
7. Fuqarolarning alohida toifalariga tibbiy yordam va davolash xizmatlari, imtiyozli aholi qatlamlarini dori-darmonlar bilan ta'minlash
8. Nogironlarni ortopediya-protez buyumlar va harakatlanish vositalari bilan ta'minlash.
9. Bolalar uylari, internatlar va boshqa muassasalarda bolalarga qarash va ularni tarbiyalash
10 Nogironlarni ishlab chiqarish va kasbiy reabilitatsiya qilish.
11. Aholiga sanatoriya-kurort xizmatlari ko'rsatish
12. Uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish
13. Ijtimoiy ta'minotning moliyaviy manbalari, ularning guruhlanishi
14. Ijtimoiy su'g'urta - ijtimoiy ta'minotning moddiy-moliyaviy asosi sifatida
15. Ijtimoiy ta'minot xizmatlarining davlat budjeti hisobidan mablag' bilan ta'minlanishi.
16. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi – pensiya ta'minotining moliyaviy manbasi
17. Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi orqali ijtimoiy ta'minot xizmatlarining moliyalashtirilishi.
18. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining ijtimoiy sug'urta budjeti mablag'lari.
19. Pensiya ta'minotining mohiyati, zarurligi va davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishdagi ahamiyati
20. Turli mamlakatlarda milliy pensiya tizimlarining shakllanishi va rivojlanishi
21. Pensiya ta'minotining holatini ko'rsatuvshi ko'rsatkishlar
22. Mamlakatiimizda pensiya ta'minoti tizimining rivojlanish bosqichlari
23. Davlat pensiyalarining turlari
24. Pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar va kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni

Scanned with CamScanner

| | |
|---|---|
| | moliyalashtirish<br>25. Davlat pensiyalarini tayinlash, hisoblash va to'lash tartibi<br>26. Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasidan to'lanadigan nafaqalar<br>27. Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoya bo'yicha davlat byudjetidan to'lanadigan nafaqalar<br>28. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha boshqa manbalardan to'lanadigan nafaqalar<br>29. Kompensatsion to'lovlar<br>30. Davlatning ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoya xarajatlari tarkibi va moliyalash manbalari<br>31. Davlat budjetining ijtimoiy ta'minotni mablag' bilan ta'minlashdagi o'rni<br>32. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi davlat tashkilotlarining guruhlanishi<br>33. O'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz fuqarolarga uyda xizmat ko'rsatish shakllari, usullari va moliyalashtirish manbalari |
| 3. | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>- pensiya tizimining mohiyati, zarurligi, belgilar va funksiyasi haqida;<br>- pensiya nazariyalarining rivojlanish bosqichlari haqida;<br>- pensiya tizimining huquqiy asoslari haqida;<br>- pensiya tayinlash tartib tamoyillari haqida;<br>- pensiya tizimini takomillashtirish haqida;<br>- rivojlangan mamlakatlarda pensiyani tayinlashni tashkil etish xususiyatlari haqida;<br>- Pensiyaning turlari haqida;<br>- Nafaqalarni turlari haqida;<br>- pensiya hisoblash usullari haqida tasavvurga ega bo'lishi;<br>- pensiya to'lash tartiblarini;<br>- Ijtiomiy nafaqalar bazasini aniqlash usullarini;<br>- Pensionerlarga beriladigan imtiyozlar haqida;<br>- Pensiya va nafaqalar bo'yicha meyoriy-huquqiy hujjatlaridan yetarli foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, taxlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayoitgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |

Scanned with CamScanner

| | |
|---|---|
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Rustamov D.R., Tursunov J.P., Beknazarov Z.E. Pensiya ishi: I-qism. – Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2021. – 436 b.<br>2. Rajabov Sh.U., Tursunov J.P., Karimqulov J.I. Pensiya ishi: II-qism. – Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2021. – 424 b.<br>3. Kasimova G.A. Ijtimoiy sug'urta. Darslik. – Toshkent: "IQTISOD -MOLIYA", 2019. – 385 b.<br>4. Vaxabov A.V. va boshq. Pensiya tizimini rivojlantirishning xorij tajribasi. Darslik. – Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2018. – 400 b.<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br><br>5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni.<br>6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni.<br>7. Mamatov B.S., Nurmuxamedova B.I. Ijtimoiy ta'minot. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2019. – 180 b.<br>8. Mamatov B.S., Xamdamov Sh.K., Tursunov J.P. Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalar. Darslik. – Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2019. – 344 b.<br>9. Касимова Г.А., Шолдаров Д.А. Пенсия таъминоти назорати. Дарслик. – Тошкент: "ИКТИСОД-МОЛИЯ", 2018. – 368 б.<br>10. Mamatov B.S. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "IQTISOD-MOLIYa", 2018. – 168 b.<br>11. Vaxabov A.V. va boshqalar. Ijtimoiy siyosat. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "MUMTOZ SO'Z", 2019. – 312 b.<br>12. Роик В.Д. Социалная политика. Социалное обеспечение и страхование: учебник и практикум для вузов / Москва: Издателство Юрайт, 2020. – 522 с.<br>13. Роик В.Д. Пенсионное страхование и обеспечение: учебное пособие для вузов / 3-е изд., испр. и доп. – Москва : Издателство Юрайт, 2020. – 478 с.<br>14. Буянова М.О., Карпенко О.И., Чирков С.А. Пенсионное обеспечение: учебное пособие для среднего профессионального образования / под общей редакцией Ю.П.Орловского. – Москва: Издательство Юрайт, 2018. – 193 с.<br><br>**Axborot manbaalari**<br>15. **www.gov.uz** (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali);<br>16. **www.mf.uz** (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy veb sayti);<br>17. **www.soliq.uz** (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy veb sayti);<br>18. **www.lex.uz** (O'zbekiston qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi rasmiy sayti); |

Scanned with CamScanner

| | |
|---|---|
| | 19. **www.pfru.uz** (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi rasmiy veb sayti);<br>20. **www.stat.uz** (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi rasmiy veb sayti); 21. www.apsf.ru (Pensiya va ijtimoiy fondlar xalqaro assotsiatsiyasi rasmiy veb sayti);<br>22. **www.oecd.org** (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti rasmiy veb sayti). |
| **7.** | Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>M.K.Aliyev QARMII, "Moliya" kafedrasi asisstenti. |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>G.P.Erkayeva - QarDU Iqtisodiyot fakulteti dotsenti, i.f.n.<br>R.F.Omanov- QarMII «Moliya» kafedrasi mudiri, dotsent, i.f.n. |

Scanned with CamScanner